



**MEDIA MAYDONDA INTERNET IMKONYATLARI VA XORIJIY  
OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI**

**ABDULFATTOHOVA OZODAXON JAHONGIR QIZI**

*Qo'qon davlat universiteti Xorijiy  
filologiya fakulteti 1-kurs talabasi va*

**NIZOMIDDINOV OZODBEK OTABEK OGLI**

*Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti MTU 2-kurs talabasi*

Elektron pochta: [nizomiddinovozeb78@gmail.com](mailto:nizomiddinovozeb78@gmail.com)

Elektron pochta: [abulfattohovaozodaxon@gmail.com](mailto:abulfattohovaozodaxon@gmail.com)

Telefon raqami: +998979469395

Telefon raqami: +998335090767

**Anotatsiya:** Ushbu maqolada media maydonda internet imkoniyatlari va xorijiy ommaviy axborot vositalarining o'rni tahlil qilingdi. Internet texnologiyalari axborot tarqatish, muloqot va ommaga ta'sir ko'rsatish jarayonlarini o'zgartirgani yoritilgan. Shuningdek, raqamli axborot makonida, tezkorlik va axloqiy masalalar muhokama qilingan.

**Kalit so'zlar:** Media, internet, ommaviy axborot vositalari, global axborot makoni, raqamli texnologiyalar, axborot xavfsizligi, axborot savodxonligi, onlayn jurnalistika.

**Kirish**

XXI asrda axborot texnologiyalarining rivojlanishi inson hayotining barcha jabhalarida ta'sir ko'rsatmoqda. Internet global media maydonini tubdan o'zgartirib, axborot uzatish, olish va tarqatish jarayonini tezkor, interaktiv hamda keng qamrovli holga keltirdi. An'anaviy ommaviy axborot vositalari jumladan: gazeta, televideniye, radio kabilar o'z o'rnini saqlab qolayotgan bo'lsa-da, internet ularning funksiyalarini kengaytirib, yangi shakldagi media tizimini shakllantirmoqda. Bugungi kunda raqamli platformalar, ijtimoiy tarmoqlar va onlayn



nashrlar orqali insonlar xohlagan vaqtda istalgan manbadan axborot olish imkoniyatiga ega. Shu bilan birga, xorijiy ommaviy axborot vositalari ham global axborot almashinuvining muhim ishtirokchisiga aylangan. Mazkur maqolada internetning media sohasidagi o'rnini, uning imkoniyatlari hamda xorijiy ommaviy axborot vositalarining ta'siri tahlil qilinadi.

Internetning media maydonidagi o'rnini va imkoniyatlari.

Internet media sohasiga kirib kelgach, jurnalistika va axborot almashinuvi jarayonlarida tub burilishlar yuz berdi. Eng avvalo, internetning global auditoriyaga chiqish imkoniyati axborot chegaralarini yo'qqa chiqardi. Endilikda O'zbekiston yoki boshqa davlatdagi har qanday media resurs o'z kontentini dunyoning istalgan burchagiga yetkazishi mumkin. Shuningdek, internet interaktivlik omilini kiritdi: auditoriya endi faqat axborotni iste'mol qiluvchi emas, balki uni baholovchi va shakllantiruvchi ishtirokchiga aylandi. Fikr bildirish, izoh yozish, baham ko'rish -- bularning barchasi zamonaviy media muhitining ajralmas qismidir.

Internetning yana bir muhim xususiyati bu tezkorlikdir. An'anaviy tahririy jarayonlardan farqli ravishda, onlayn axborot vositalari voqealarni real vaqt rejimida yoritadi. Shu bois ham, so'nggi yillarda "Digital journalism" (raqamli jurnalistika) degan tushuncha paydo bo'ldi. Bu yo'nalish jurnalistlardan multimedia vositalaridan foydalanish, hipermatn (hypertext) va vizual elementlarni uyg'unlashtirishni talab etadi. Biroq bu jarayon bir qator muammolarni ham yuzaga chiqaradi. Internetdagi axborot oqimi haddan tashqari keng bo'lib, uning ishonchliligini telshirish qiyinlashadi. Shu sababli, axborot savodxonligi har bir foydalanuvchi uchun zarur ko'nikmaga aylanadi. Jurnalistika sohasida ham manbani tekshirish, tahririy mas'uliyatni saqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xorijiy ommaviy axborot vositalarining o'rnini va ta'siri

Globalizatsiya jarayonlari kuchaygan sari, xorijiy media manbalarining ta'siri ham ortib bormoqda. CNN, BBC, Al Jazeera, Reuters kabi xalqaro tarmoqlar voqealarni keng miqyosda yoritib, dunyo jamoatchiligi uchun asosiy axborot manbaiga aylangan. Bunday ommaviy axborot vositalari xalqaro standartlar asosida ishlaydi: xolislik, tezkorlik, ko'p manbalilik va tahliliy yondashuv ularga xos. Shu



bois, ular mahalliy mediaga ham o'rnak bo'la oladi. O'zbekistonlik jurnalistlar orasida xorijiy media tajribasini o'rganish, ularning axborot yoritish uslublaridan foydalanish amaliyoti kengaymoqda. Biroq X-OAVlarning faoliyati bilan birga acrimonious xavflar ham mavjud. Masalan, ayrim xorijiy nashrlar siyosiy va iqtisodiy manfaatlardan kelib chiqib, voqealarga bir tomonlama yondashadi. Natijada, axborot nustaqilligi va milliy axborot suvereniteti masalasi dolzarb bo'lib qoladi. Shu bois, mahalliy media tizimi xorijiy manbalarni tahliliy tarzda o'rganishi, ularni tanqidiy baholashi lozim. Shu bilan birga, xalqaro ommaviy axborot vositalari orqali madaniy almashinuv ham kuchayadi. Xorijiy axborot manbalari orqali boshqa xalqlarning qadriyatlari, madaniyati va tafakkuri haqida ma'lumot olish mumkin. Bu jarayon yoshlarning dunyoqarashini kengaytiradi, ularni global voqelikdan xabardor qiladi. O'zbekiston media makonida internet va xorijiy ommaviy axborot vositalari.

O'zbekiston mustaqillika erishganidan so'ng, ommaviy axborot vositalari bosqichma-bosqich isloh qilindi. So'nggi yillarda "Axborotlashtirish to'g'risida"gi qonun, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi yangi tahrirdagi yangi tahrirdagi hujjatlar, internet jurnalistikasini rivojlantirish bo'yicha dasturlar qabul qilindi. Bugungi kunda mamlakatda yuzlab onlayn nashrlar faoliyat yuritmoqda. "Daryo", "Kun.uz", "Gazeta.uz" kabi saytlar internet foydalanuvchilar orasida keng auditoriyaga ega. Ular tezkorlik, qulay dizayn va multimedia elementlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, xalqaro ommaviy axborot vositalari yuzaga chiqaradi. Internetdagi axborot oqimi haddan tashqari keng bo'lib, uning ishonchliligini telshirish qiyinlashadi. Shu sababli, axborot savodxonligi har bir foydalanuvchi uchun zarur ko'nikmaga aylanadi. Jurnalistika sohasida ham manbani tekshirish, tahririy mas'uliyatni saqlash muhim ahamiyat kasb etmoqda. bilan hamkorlik ham yo'lga qo'yilgan. Masalan, BBC Uzbek, Amerika o'zbek tahrirlari o'zbek tilida yangiliklar taqdim etib, jahon voqealari kengroq yoritadi. Bu esa mahalliy auditoriyaning xorijiy manbalardan xabardor bo'lishni ta'minlaydi. Biroq raqamli media sohasida muammolar ham mavjud: ayrim onlayn nashrlar moliyaviy mustaqillikaga ega emas, ayrimlarida tahririy siyosat aniq shakllanmagan. Shu



sababli, raqamli jurnalistikani barqaror rivojlantirish uchun kadrlar tayyorlash, media savodxonlikni oshirish va mahalliy kontentni ko'paytirish zarur.

#### **Media savodxonlik va axborot madaniyati**

Internet va global ommaviy axborot vositalarining kengayishi sharoitida aholining media savodxonligini oshirish dolzarb masalaga aylandi. Chunki internetda mavjud ma'lumotlarning barchasi ishonchli emas. Har bir foydalanuvchi axborotni tanlab olish, manbani tekshirish, yolg'on xavarlarni farqlashni o'rganishi kerak. Ta'lim tizimida "Media savodxonlik" fanining joriy etilishi, yoshlarni mustaqil fikrlashga, tanqidiy tahlil qilishga o'rgatadi. Oliy ta'lim muassasalarida bu fan o'qitilishi, zamonaviy internet muhitida to'g'ri yo'l topish uchun muhim ahamiyatga ega.

#### **Xulosa**

Internet va global media tizimi axborot makonida yangi davrni boshlab berdi. U insoniyatga tezkorlik, erkinlik, keng auditoriyaga chiqish imkoniyati berdi. Shu bilan birga, bu imkoniyatlar bilan bir qatorda axborotning ishonchliligi, milliy qadriyatlarni saqlash va manipulyatsiyalarga qarshi immunization shakllantirish zarurati ham paydo bo'ldi. Xorijiy ommaviy axborot vositalari dunyo miqyosida axborot almashinuvini ta'minlab, mahalliy mediaga o'rnak bo'la oladi. Ammo ularning ta'sirini to'g'ri baholash, ularning materiallariga tanqidiy yondashish, mustaqil axborot siyosatini ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi. Shu sababli, internet imkoniyatlari-dan to'g'ri foydalanish, mahalliy media tizimini rivojlantirish va aholining media savodxonligini oshirish---axborot asrida mamlakat taraqqiyotining muhim omillaridan biridir.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. O'zbekiston Respublikasining "Axborotlashtirish to'g'risidagi" gi qonun
2. O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida" gi qonuni
3. "Raqamli O'zbekiston -2030" davlat dasturi.

**INTERNET MANBALARI:**



- 1.<https://www.globalmediajournal.com>-The Impact of the Internet on Journalism Practice in the Context of Newsgathering,Processing and Dissemination,2020.
- 2.<https://www.bbc.com/uzbek>- BBC Uzbek xizmati,2024.